INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA TAVAKKALCHILIKNI BOSHQARISH VA TAVAKKALCHILIK DARAJASINI PASAYTIRISH YO‘LLARI

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
“Menejment” fakulteti
“Ko’chmas mulkni boshqarish”
kafedrasi PhD. ***Elbayeva M.R.***
Iqtisodiyot yo’nalishi magistranti ***Inoyatova X.X***

Annotatsiya. *Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida real investitsiyalarning barcha turlari turli shakldagi tavakkalchiliklar ta’sirida uchrashi barcha investorlar va shu bilan birga investitsion faoliyat bilan shug’ullanuvchi shaxslarga ma’lum. Bunga asosiy sabab iqtisodiyotdagi turli o’zgarishlarning mavjud bo’lishi, investitsiya bozori kon’yunkturasining o’zgarib turishi, turli shakldagi real investitsion loyihalarni vujudga kelishi va ularni moliyalashtirish shakllarini turlicha bo’lishligidadir. Maqolada tavakkalchilik darajasini pasaytirish bo’yicha samarali strategiyalar, xususan diversifikatsiya, sug’urta va moliyaviy tahlil kabi choralar tavsiya etiladi.*

Kalit so’zlar: *investitsiya loyihalari, tavakkalchilik, boshqaruv, diversifikatsiya, baholash, pasaytirish usullari.*

Абстрактный. *В условиях современной рыночной экономики все виды реальных инвестиций подвержены воздействию различных форм риска, что представляет собой актуальную проблему как для инвесторов, так и для субъектов инвестиционной деятельности. Основные причины возникновения рисков заключаются в нестабильности экономических процессов, изменчивости конъюнктуры инвестиционного рынка, разнообразии форм реализации реальных инвестиционных проектов и многообразии механизмов их финансирования. В представленной статье рассматриваются эффективные подходы к снижению уровня инвестиционного риска, в частности, такие инструменты, как диверсификация, страхование и финансовый анализ.*

Ключевые слова: *инвестиционные проекты, риск, управление, диверсификация, оценка, методы снижения.*

Abstract. *In the context of the modern market economy, all types of real investments are subject to various forms of risk, which poses a significant challenge for both investors and participants in investment activities. The primary causes of these risks lie in the dynamic nature of economic conditions, the volatility of the investment market, the diversity of real investment project structures, and the variety of available*

financing mechanisms. This article examines effective strategies for mitigating investment risk, with particular attention to instruments such as diversification, insurance, and financial analysis.

Keywords: *investment projects, risk, management, diversification, assessment, risk mitigation methods.*

Investitsion faoliyatni amalga oshirishda investitsiya tavakkalchiligi tushunchasini bilishning o'zi yetarli emas. Bunda tavakkalchilik, avvalo, korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir etishini va uni pasaytirish yo'llarini bilish muhimdir. Odatda, tavakkalchilikni pasaytirish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi.

Tavakkalchilikning vujudga kelishini kamaytirish;

Tavakkalchilikning korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini kamaytirish.

Real investitsion loyihaning tavakkalchiligi, bu - investitsion loyihalarni amalga oshirishga taxdid soluvchi va ularning hisoblangan samaradorligini pasaytiruvchi imkoniyatlar tushuniladi.

Korxonani loyihaviy tavakkalchiligi ko'p qirrali bo'lib, ularni samarali boshqarish maqsadida quyidagi xususiyatlarga qarab tasniflash lozim (3.2.1- rasm).

Korxonaning investitsion loyihasi tavakkalchiligi tasnifi quyidagi yettita guruxdan iborat:

-turi bo'yicha;

- loyihani amalga oshirish bosqichlari bo'yicha;

-vujudga kelish manbalari bo'yicha;

- vaqt bo'yicha namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra;

- moliyaviy yo'qotishlar darajasi bo'yicha;

- ko'ra bilish imkoniyati bo'yicha;

-sug'urtalash darajasi bo'yicha.



1-rasm. Korxonaning loyihaviy tavakkalchilik tasnifi

Bu guruhlar, o’z navbatida, har biri yana turli xususiyatlarga qarab guruhlanadi.

Bugungi kunda tavakkalchilikni boshqarish bo’yicha yetarli darajada yaxshi tarkib topgan faoliyat mavjuddir. Bu faoliyat quyidagi asosiy yo’nalishlarni o’z ichiga oladi.

Tavakkalchilik ta’sirini kamaytirishda ikkita bir-birini to’ldiruvchi yo’llar mavjud:

- shartnomalarni bajarish bosqichida ularni bajarilishini ta’minlovchi chora-tadbirlar;
- loyihani amalga oshirish jarayonida boshqaruv qarorlarining nazoratini samarali tashkil etish.

Birinchi yo’l dunyo amaliyotida quyidagicha amalga oshiriladi:

- sug’urtalash;
- qarzdorning mulkini ushlab turish yoki kafilligini ta’minlash;
- loyihani moliyalashtirish jarayonini bosqichlarga bo’lgan holda tasdiqlash;
- investitsiyani diversifikatsiyalash.

Ikkinchi yo’l, ya’ni loyihani amalga oshirish jarayonida boshqaruv qarorlarining nazoratini samarali tashkil etish quyidagi uslublar asosida amalga oshiriladi:

- kutilmagan xarajatlarni qoplash maqsadida mablag’larni zaxiralash;
- kreditlarni restrukturizatsiyalash;

Loyihaviy tavakkalchiliklarni kamaytiruvchi
uslublarning bir nechtasini ko’rib chiqamiz.

Investitsion tavakkalchiliklarni kamaytiruvchi uslublarning eng muhimlaridan biri, bu - ***diversifikatsiyalash*** hisoblanadi. Har qanday investitsion loyihalarni qabul qiluvchi shaxs investitsion loyihaga bog’liq bo’lgan boshqa loyihalarni ham birgalikda ko’rib chiqadi. Tavakkalchilikni kamaytirishda shunday mahsulotlarni ishlab chiqarish rejalashtirilishi lozimki, unga bo’lgan talab qarama- qarshi yo’nalishda o’zgarsin.

Loyihaviy tavakkalchilikning loyiha qatnashchilari orasida taqsimlanishi uni kamaytirishning eng maqbul uslublaridan hisoblanadi. Bunda tavakkalchilikning alohida holatlarini investitsion loyiha qatnashchilari orasida taqsimlanishi nazarda tutiladi.

Tavakkalchilikning taqsimlanishi loyihaning moliyaviy rejasini ishlab chiqishda hisobga olinadi va shartnoma hujjati ko’rinishida rasmiylashtiriladi.

Kutilmagan xarajatlarni qoplash maqsadida mablaglarni zaxiralash - investitsion loyihalarning tavakkalchiligini kamaytiruvchi keng tarqalgan uslublardan biri hisoblanadi. Bunda loyihani amalga oshirishda vujudga keladigan tavakkalchiliklarni kamaytirish maqsadida loyiha qiymatining ma’lum qismi zaxiralashtiriladi. Dunyo amaliyotida loyiha qiymatini fors-major holatlari uchun 7-12 foiz ko’paytirishga ruxsat beriladi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi alohida tavakkalchiliklar ta’sirini yo’qotish yoki yumshatish uchun bir qancha usullar qo’llaniladi.

1. Tavakkalchilikdan qochish. Qochish deganda tavakkalchilik bilan bog'liq tadbirlardan shunchaki og'ish tushuniladi. Tavakkalchilikni pasaytirishning bu usuli mukammal ko'rib chiqilmaydi.

2. Tavakkalchilikni loyiha ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash (tavakkalchilikning bir qismini hamkorlarga berish). Tavakkalchilikni taqsimlash

loyihaning moliyaviy rejasini va aniq hujjatlarini ishlab chiqishda amalga oshiriladi.

3. Tavakkalchilikni sug'urtalash. Tavakkalchilikni sug'urtalash, mantiqan olganda, muayyan tavakkalchiliklarni sug'urta kompaniyalariga berishni angla- tadi. Uning mohiyati investorning tavakkalchilikdan qutulish maqsadida daromadning bir qismidan voz kechishi orqali aks ettiriladi. Bunda investorning tavakkalchilik darajasini «nol» ga tushirish uchun to'lovni amalga oshirishga tayyor ekanligini tushunish mumkin. Ko'p hollarda, sug'urta kompaniyalari moliyaviy tavakkalchiliklarni sug'urtalash bilan tavakkalchilik darajasini pasaytirishga to'liq eri- shishga xizmat qiladilar.

4. Tavakkalchilikni pasaytirish (ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zaxira mablag'larini tashkil etish yo'li bilan yo'qotishlar hajmini qisqartirish). Ko'zda tutilmagan xarajatlarni qoplash uchun zaxira mablag'larini tashkil etishdagi asosiy muammo tavakkalchiliklarning jiddiy oqibatlarini baholash hisoblanadi. Buning uchun loyiha qiymatini boshlang'ich baholashni hisobga olish lozim. Bu esa zaxira summasini aniqlashga katta yordam beradi.

Tavakkalchilikni pasaytirishning aniq vositasi- ni tanlashda investor quyidagi tamoyillarga asos lansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi:

-ortiqcha tavakkal qilish kerak emas;

-tavakkalchilik oqibatlari to'g'risida o'ylash lozim;

-kam narsa uchun tavakkalchilik qilish kerak emas.

Birinchi tamoyilning amalga oshirilishi investor kapitalni qo'yishdan oldin:

ushbu tavakkalchilik bo'yicha mumkin bo'lgan zararning maksimal hajmini aniqlab olishi;

uni barcha xususiy moliyaviy mablag'lari bilan taqoslashi va ushbu kapitalning yo'qotilishi investorning bankrot bo'lishiga olib kelish kelmasligini aniqlashi lozim. Kapital qo'yilmasidan ko'rilgan zarar hajmi ushbu kapital hajmiga teng, undan katta yoki kichik bo'lishi ham mumkin. Xususan, bevosita investitsiyalardagi zarar hajmi, odatda, inflyatsiya omilini hisobga olgan holdagi venchur kapitali hajmiga tengdir.

Ikkinchi tamoyilning amalga oshirilishi investorning tavakkalchilik ehtimolligi miqsori va oqibatlarini aniqlab olgan holda tavakkalchilikni pasaytirish usullari to'g'risida qaror qabul qilinishini talab etadi.

Uchinchi tamoyilning amal qilinishi loyihadan ko'riladigan zarar hajmi nisbatan yuqori bo'lgan hollarda tavakkalchilikdan bosh tortish zarurligi bilan anglashiladi. Investor uchun uning manfaatiga mos bo'lgan loyiha uni amalga oshirishdagi yuzaga keluvchi tavakkalchiliklarning to'liq bartaraf etilganidir. Loyihaning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda muqobil loyihalarni taqqoslama tahlil etishning ahamiyati juda kattadir. Loyihalarning taqqoslama tahlili, hatto, ularning qaysi biri eng kam tavakkalchilikli, yuqori foydali, tez qaytimli, kafolatlangan daromadli, hayotiyligi ishonchli investitsiya loyihasi ekanligini aniqlashga imkon beradi. Bunday tahlil investorning moliyalashtirishga loyiq haqiqiy raqobatbardosh loyihani aniqlashi va tanlashiga imkon yaratadi.

Xulosa. Investitsion loyihalarni amalga oshirishda tavakkalchilikni boshqarish masalasi bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday investitsion faoliyat ma'lum darajada noaniqlik va xavflar bilan bog'liq bo'lib, ularning oqilona boshqarilmasligi investitsiya samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Maqolada ko'rib chiqilganidek, tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash va ularni boshqarish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar investitsion xavflarni minimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Diversifikatsiya, sug'urta, moliyaviy tahlil va boshqa riskni kamaytiruvchi choralar investorlar uchun samarali vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, investitsion qarorlarni qabul qilishda tavakkalchilik darajasini baholash va unga nisbatan mos strategiyalarni ishlab chiqish zarurati alohida ta'kidlanadi. Shunday qilib, tavakkalchilikni boshqarish mexanizmlarini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali investitsion loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi hamda iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maxmudov E.X. "Korxona iqtisodiyoti" O'quv qo'llanma.Toshkent. O'zbekiston. 2004-yil.

2. Yodgorov V.U., Nigmanova G., Nasirova L.A. Bozor munosabatlari va bahoni shakllantirishning makro-mikroiqtisodiy masalalari. O'quv qo'llanma. TAQI. 2014 y. 160 bet.

3. Yodgorov V.U., Butunov D.Ya., Xaitov E.B. Qurilishda bahoni shakllantirish. TAQI. «AQIIM» ShK, T.: 2014g.-245 b.

4. A.A. Xoshimov, Sh.A. Madjidov Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma "Sharq" nashriyot Toshkent-2014.

5. Гаврилов Д.А Проектно-цетное дело: Учебное пособие / ретс. В.В Бычков. - [б. м.] : Инфра-М, 2017. - 352 с.

6. "Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash qoidalari. Shaharsozlik normalari va qoidalari. (SHNQ 4.01.16–09 Iqtisodiy normativlar). O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi. Toshkent 2009.